

## FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI: KONNOTATSIYA VA EKSPRESSIVLIK O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Nurmatova D.

Doktorant

O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

**Annotatsiya** Ushbu maqolada frazeologik birliklarning stilistik ekspressivlik xususiyati, ularning emotsiyal, baholovchan va konnotativ jihatlari lingvistik jihatdan tahlil etiladi. Konnotatsiya, uning turlari va frazeologik birliklarning uslubiy xususiyatlari namoyon bo'lishidagi ahamiyatiga ta'rif beriladi. Maqolada, shuningdek, frazeologik vositalarning matndagi ta'sirchanlik darajasi, ularning funksional-stilistik imkoniyatlari, shuningdek, ekspressivlik vositasi sifatidagi o'rni aniqlanadi. Bu esa, o'z navbatida, tilning stilistik boyligini yanada chuqurroq anglashga, frazeologizmlarning kommunikativ va pragmatik xususiyatlarini yoritishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** frazeostilistika, ekspressivlik, konnotatsiya, baholovchan, emotsiyal va ekspressiv konnotatsiya


### Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarining nafaqat nominativ, balki ekspressiv, baholovchan va emotsiyal funksiyalarini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, frazeologik birliklar badiiy ifoda vositasi sifatida tilning boyligi va milliy mentalitetning ko'zgusi sifatida katta ahamiyatga ega. Ular nafaqat til egalarining kundalik muloqotda his-tuyg'ularini, munosabatini ifodalashda, balki adabiy matnlar, publisistik hamda og'zaki nutq uslublarida muhim stilistik yuklama vazifasini bajaradi.

Frazeologizmlar tarkibida ifodalangan ekspressivlik, emotsiyonallik va konnotativ ma'no darajalari tahlili til birliklarining mazmuniy kengligini, ularning muloqotdagi ta'sirchanligini aniqlashda muhim o'rinn tutadi. Tilshunos olimlar, jumladan, Sh. Bally, V.V. Vinogradov, N.A. Lukyanova, B. Yo'ldoshev, G. Rahmatullayev, A. Madvaliev va boshqalar frazeologik birliklarning stilistik vazifalarini, ularning emotsiyal va ekspressiv rangdorligini tadqiq etganlar. Ammo frazeologik birliklarning aynan ekspressivlik ifodasidagi roli, ya'ni ularning stilistik ahamiyati va kommunikativ jarayondagi baholoviy yuklamasi haqida hali yetarli darajada izchil tadqiqotlar olib borilmagan.

### Asosiy qism

Frazeologik birliklar nafaqat til birliklari sifatida, balki kuchli ekspressiv vosita



sifatida ham e'tiborni tortadi. Ular matnga emotsiyal, obrazli va baholovchi tus berib, muallifning shaxsiy munosabatini ifodalashga xizmat qiladi.

Tildagi ko'pgina frazeologik birliklar uchun ekspressiv-emotsional bo'yoyqendorlik ajralmas hususiyat hisoblanadi, shu bilan birga, iboralarining asosiy qismi uslubiy jihatdan neytraldir. Chunki ular yordamida predmet yoki hodisa nomlanibgina qolmasdan, o'sha shaxs, predmet yoki hodisaga so'zlovchining shaxsiy munosabati ham ifodalanadi [Yo'ldoshev, 1998]. Shu o'rinda mashhur tilshunos Sharl Ballining stilistikaga bergan ta'rifini keltirish joiz bo'ladi: stilistika — bu til birliklari va nutqiy hodisalarning hissiy-ekspressiv jihatlarini o'rganadigan fan bo'lib, u tilning ifodaviy vositalar tizimini shakllantirishga xizmat qiluvchi omillarni tahlil qiladi [Balli, 1951]. Tilshunoslikning leksikologiya bo'limida o'rganiluvchi frazeologik birliklar ekspressiv hususiyatga ega ekanligi sababidan stilistika fani o'rganish obyekti ham hisoblanadilar.


Stilistika, garchi boshqa tomondan yondashsa-da, leksikologiyada o'rganiladigan ko'plab muammolarni tadqiq etadi. Bular — ma'no turlari, sinonimlik, lug'at tarkibining muloqot sohasi bo'yicha funksional-uslubiy farqlanishi va boshqa ba'zi masalalardir.

Stilistik tadqiqotda nutq fikr ifodasining tashqi shakli sifatida qaraladi. Fikrlar obyektiv, mantiqiy shaklda yoki turli darajadagi hissiy elementlar bilan ifodalanadi. Bu elementlar shaxsiy holat yoki ijtimoiy vaziyat ta'sirida yuzaga keladi. Natijada nutq doimo mantiqiy va hissiy komponentlarni o'zida uyg'unlashtiradi. Obyektiv borliqdagi nimaningdir ongdagi in'ikosi tushuncha bo'lgani holda, ongning obyektiv borliqdagi narsaga munosabati ham bor. Bu munosabat hurmat, hayratlanish, yumshoqlik, qo'pollik, yoqtirmaslik kabilardan iborat bo'ladi. [Arnold, 2012].

Agar o'quvchi so'zlarning konnotatsiyalari, tarixiy taraqqiyoti, zamirida yashiringan obrazlari va uslubiy xususiyatlaridan bexabar bo'lsa, u holda matnning katta qismi unga tushunarsiz bo'lib qoladi [Arnold, 1986].

A. V. Kunin ta'kidlashicha, frazeologizmlar har doim eshituvchi yoki o'quvchiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan bo'lib, ularning stilistik xususiyatlari semantik tuzilmasi va kontekst bilan chambarchas bog'liqdir. U frazeologizmlarning stilistik jihatdan belgilanganligini [neytral, adabiy, so'zlashuv, qo'pol, she'riy va boshqalar] ko'rsatadi va ularning ekspressiv imkoniyatlarini alohida qayd etadi [Kunin, 1996].

A. N. Arxangelskiy esa frazeologik birliklarning badiiy va publisistik uslubdag'i o'mini yoritib, ular orqali muallifning emotsiyal kayfiyati, bahosi va obrazlilik darajasi aniqlanishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, frazeologizmlar asarda nafaqat nomlash [nominal] vazifani, balki stilistik yuklama — muallif nutqining ohangini shakllantirish vazifasini ham bajaradi [Arkhangelskiy, 1984].



Bu fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, milliy til va madaniyatning o‘ziga xos jihatlarini aks ettirgan frazeologizmlar matn stilistikasida muhim o‘rin egallaydi. O‘zbek tilshunosi B. Yo‘ldoshev fikricha, frazeologizmlar muayyan emotsiyal va obrazli yuklamaga ega bo‘lib, ular tilda inson ruhiyati, munosabati va bahosini ifodalashda faol xizmat qiladi. Muallif ta’kidlaganidek, frazeologizmlar faqatgina ma’lumot beruvchi emas, balki obrazli-estetik ekspressiyani ta’minlovchi vositadir [Yo‘ldoshev, 2012].


Frazeostilik tahlil doirasida rus tilshunoslari ham frazeologik birliklarning stilistik imkoniyatlarini chuqur o‘rganganlar. Masalan, V. V. Vinogradov frazeologizmlarni emotsiyal ifoda, baholovchanlik va stilistik rang nuqtai nazaridan tahlil qilib, ularni stilistik jihatdan tayyor nutq birliklari deb ataydi. U frazeologizmlarning nutq obrazliligini kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qilishini ta’kidlaydi [Vinogradov, 1947].

D. N. Shmelyov esa frazeologizmlarning sub’ektiv baho va emotsiyal reaksiyani ifodalashdagi roliga e’tibor qaratib, ular tilda milliy xarakter va tafakkurni aks ettiruvchi vosita sifatida shakllanganini qayd etadi [Shmelyov, 1977]. Shuningdek, S. E. Nikitina frazeologik birliklarni semantik yaxlitlik va stilistik markirovkalanganlik mezonlari orqali tahlil qilib, ularni badiiy nutqdagi ifodaviylik markazi deb ataydi [Nikitina, 1988]. Shunday qilib, frazeologizmlarning frazeostilik funksiyasi shundaki, ular stilistik darajada emotsiyal, baholovchi va obrazli ta’sir ko‘rsatadi. Aynan shu xususiyatlar ularni badiiy nutqda ayniqsa muhim vositaga aylantiradi.

L.I.Royzenzon o‘z asarlarida frazeologizmlarning stilistik xususiyatlariga katta e’tibor qaratgan. U frazeologizmlar faqat nomlash [nominativ] vazifani emas, balki ularning tuzilishi, ma’nosи va qo’llanilish sohasiga bog‘liq bo‘lgan yaqqol ifodalangan stilistik rang-baranglikka ega ekanini ta’kidlaydi. Xusan, Rus frazeologiyasi [1977] nomli darsligida Royzenzon frazeologizmlar stilistik jihatdan neytral yoki bo‘yoq dor bo‘lishi mumkinligini, ular turli funksional uslublarga — so‘zlashuv, badiiy, publitsistik va boshqa uslublarga oid bo‘lishi mumkinligini aytadi. U frazeologizmlar orqali emotsiyal-baholovchi ma’lumot yetkazish va nutq ifodalilagini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi.

FB larning semantik strukturasida ko’pincha konnotativ element ishtirot etadi. Bu element iboraning nominativ-mantiqiy ma’nosiga emotsiyal-ekspressiv bo‘yoq dorlik yuklaydi. Ammo ta’riflardan ekspressivlik FB larning kategorial xususiyati degan xulosa kelib chiqmasligi kerak.

Frazeologik birliklar so‘zlar orasidagi assotsiativ bog‘lanish asosida shakllanadi. Demak so‘zning konnotativ ma’nosи uchun berilgan ta’rifdan FB uchun ham foydalananish o‘rinli.



Konnotatsiyani Arnold quyidagicha tavsiflaydi: so‘zlovchining ijtimoiy vaziyatga va mos funksional uslubga bo‘lgan munosabati [*slay — kill*], predmetga bo‘lgan ijobiy yoki salbiy bahosi [*clique — group*], his-tuyg‘ulari [*mummy — mother*] yoki ifodaning intensivlik darajasi [*adore — love*] haqidagi axborotni bildiruvchi ma’no. Konnotativ komponent majburiy emas, ya’ni ba’zi hollarda u umuman bo‘lmashligi mumkin, yoki bo‘lsa ham, uning mantiqiy [logik] ma’noga nisbatan ulushi har xil bo‘ladi [Arnold, 1986]. Bu ta’rif ekspressivlik tushunchasiga berilgan ta’rifga juda o’xhash.


Til birliklariga kinoya, tantanavorlik, hazil, inshonchsizlik, shubha kabi uslubiy nozikliklarni yuklovchi hodisani tilshunos olimlar “uslubiy bo’yoq”, “uslubiy tonallik”, “konnotatsiya” “emotsional-ekspressiv bo’yoqdorlik” va “konnotativ ma’no” atamalaridan foydalanilmoqda. Konnotatsiya atamasi ham turlichal talqin qilinmoqda.

Shu o’rinda B.Yo’ldoshevning uslubiy ma’noga bergen ta’rifini keltirib o’tsak, Uslubiy ma’no – inson ongingin ekspressiv-baholash faoliyati mahsuli bo’lib, so’z va FB ning tushuncha ifodalash hususiyati bilan uzviy bog’liqdir. So’z va iboraning denotativ hamda konnotativ ma’nolarga ega ekanligi ularning badiiy tasvirda asosiy vositalardan biri sifatidagi rolini belgilaydi... Shunday qilib bizningcha, konnotatsiya, uslubiy bo’yoqdor, uslubiy ma’no atamalari bir tushunchani, bir lisoniy hodisani ifodalaydi. Ularni ma’nodosh atamalar sifatida qo’llash mumkin [B.Yo’ldoshev, 1998].

Tilshunoslikda konnotatsiya atamasi til birliklarining semantik tuzilmasida asosiy [denotativ] ma’nodan tashqari mavjud bo‘lgan qo’shimcha, ko‘pincha subyektiv xarakterga ega bo‘lgan ma’nolar tizimini anglatadi. Konnotatsiya, odatda, emotsional, baholovchi va ekspressiv semalardan iborat bo’lib, ular orqali tilshunoslikda mazmunning chuqur qatlamlari ochib beriladi. Sharl Balli tilning ekspressiv xususiyatlarini o‘rganishda konnotatsion ma’noga alohida urg‘u bergen bo’lib, u konnotatsiyani til birliklarining subyektiv-estetik qiymatini belgilovchi vosita deb hisoblaydi [Balli, 1909].

Frazeologik birliklar tilning konnotativ va ekspressiv qatlamlarini eng yaqqol ifodalovchi vositalardan biridir. Ular tarkibidagi obrazlilik, stilistik ifoda kuchi va hissiy ta’sir frazeologizmlarni oddiy so‘zlardan keskin ajratib turadi. B. Yo’ldoshevning ta’kidlashicha, frazeologik birliklar inson tafakkurining, hissiyotining, baholash mezonlarining tilda ifodalanish shaklidir [Yo’ldoshev, 2008, 45-bet]. Bu fikr frazeologizmlarning nafaqat semantik, balki madaniy-badiiy yuklamasiga ham ega ekanligini ko’rsatadi.

Rus tilshunoslida ham bu holat chuqur o‘rganilgan. M. N. Kozenko frazeologik birliklardagi konnotatsion qatlarni “kommunikativ ekspressivlikning asosiy manbai” deb ta’riflaydi [Козенко, 2004]. Bu fikr frazeologizmlarning nutqdagi vazifasini



yanada kengroq kontekstda talqin qilish imkonini beradi.

Zamonaviy lingvistik tadqiqtarda til birliklarining ma’nosini o‘rganishda konnotatsiya alohida semantik qatlam sifatida ajralib turadi. Konnotatsiya – bu til birligi bildirgan asosiy, denotativ ma’nodan tashqari, unga yuklangan hissiy, stilistik va baholovchi qo‘srimcha ma’nolarning yig‘indisidir [Balli, 1909]. Bu hodisa ayniqlas frazeologik birliklar tarkibida yorqin namoyon bo‘ladi, chunki ular ko‘pincha obrazli, emotsiyal va baholovchi funksiyani bajaradi.

Konnotatsiyaning asosiy turlari quyidagilardan iborat:


- Emotsional konnotatsiya** – bu so‘z yoki iboraning kishida uyg‘otadigan hissiy reaktsiyalari bilan bog‘liq. Masalan, “*yuragi siqilmoq*” iborasi nafaqat jismoniy holatni, balki chuqur ruhiy kechinmalarni ham anglatadi.
- Baholovchi konnotatsiya** – bu til birligi orqali ifodalanuvchi shaxsiy munosabat yoki ijtimoiy baho. Masalan, “*qo’li egri*” salbiy baho bildiruvchi ibora bo‘lsa, “*qo’li gul*” ijobjiy baholashdir.
- Ekspressiv konnotatsiya** – bu obrazlilik va stilistik kuch bilan bog‘liq bo‘lib, estetik ifoda vositasi sifatida xizmat qiladi. Masalan, “*bag’ri keng*” iborasi oddiy “yaxshi inson” degan so‘zdan farqli o‘laroq, kuchli ekspressivlik va obrazlilikni bildiradi.

Frazeologik birliklar o‘z tabiatiga ko‘ra konnotatsiyalangan birliklar bo‘lib, ular tilning ekspressiv qatlamida alohida o‘rin egallaydi. Bekmurod Yo‘ldoshev bu borada quyidagicha fikr bildiradi: “Frazeologik birliklar inson tafakkuri va hissiyotining tilda aks etish shakli bo‘lib, ular orqali xalq dunyoqarashi, madaniy tafakkuri ifodalanadi” [Yo‘ldoshev, 2008, 45-bet].

Konnotatsiya va ekspressivlik o‘rtasidagi uzviy aloqa aynan frazeologizmlar misolida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Frazeologizmlar semantik jihatdan murakkab, ko‘p qatlamli birliklar bo‘lib, ularda denotativ va konnotativ ma’nolar uyg‘unlashgan. M. N. Kozenkoning ta’kidlashicha, konnotatsion qatlam frazeologik birliklarda kommunikativ ekspressivlikni kuchaytiruvchi asosiy manbadir [Козенко, 2004].

Masalan, “*burni osmon*” iborasi orqali faqatgina kibrli odam nazarda tutilmaydi, balki bu ibora orqali salbiy baho, tanqidiy munosabat va ijtimoiy norozilik ham ifodalanadi. Yoki “*boshi qotgan*” iborasi oddiy “ko‘p o‘yladi” degan ma’nodan tashqari holda, haddan ziyod ruhiy bosim va charchoq holatini ham bildiradi. Bu kabi iboralar tilga emotsiyal ta’sirchanlik, obrazlilik va xalqona badiiylik baxsh etadi.

“*Ko‘ngli keng*” iborasi nafaqat mehribon odamni anglatadi, balki u orqali insonning saxiyligi, bag‘rikengligi va ezgulikka moyilligi obrazli, hissiy va baholovchi nuqtai nazardan ifodalanadi. Shuningdek, “*peshonaga yozilgan*” iborasi inson hayotiga oid falsafiy yondashuvni ifodalagan holda, diniy-madaniy konnotatsiyani ham o‘zida




mujassamlashtiradi.

## Xulosa

Frazeologik birliklar orqali tilning madaniy, estetik va baholovchi imkoniyatlari ochiladi. Ular milliy tafakkur va psixologiyaning ifoda vositasi bo'lib, har bir tildagi konnotativ imkoniyatlarni o'ziga xos tarzda namoyon etadi. Frazeologik birliklarda konnotatsiyalar ularning ekspressivlik hususiyatini namoyon etish uchun asos bo'lib hizmat qiluvchi semantik komponentlar hisoblanadi. Ekspressivlik esa o'z navbatida frazeologik birliklarning stilistik hususiyatidir. FB larning stilistik hususiyatlari va imkoniyatlari, ekspressivligi va ular zamiridagi konnotatsiyalarni tilshunoslikning frazeostistikka bo'limida o'r ganiladi. Ular tilshunoslikda faqatgina stilistik yoki semantik tahlil ob'ekti bo'lib qolmasdan, balki madaniyatshunoslik, psixolingvistika va kommunikativ pragmatika doirasida ham o'r ganilishi lozim bo'lgan muhim fenomenlardir. Demak, konnotatsiya va ekspressivlik frazeologik birliklarning asosiy semantik belgilari sifatida ularning til tizimidagi badiiy-estetik va kommunikativ imkoniyatlarini belgilaydi. Ular orqali nafaqat tilning emotsional ifoda kuchi, balki madaniy mentalitet va xalqning dunyoqarashi ham namoyon bo'ladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Арнольд, И. В. The English Word. Москва “Высшая школа”. 1986
2. Архангельский, А. Н. Стилистика русского языка. Москва: Просвещение. 1984
3. Bally, C. *Traité de stylistique française*. Genève: Georg. 1951
4. Irisqulov, M. Tilshunoslikka kirish. O'zDJTU. Darslik. Toshkent. 2008
5. Козенко, М. Н. Коннотация как фактор экспрессивности фразеологических единиц. Вестник Московского университета. Серия 9: Филология, 6, 2004. 34–40.
6. Кунин, А. В. Курс фразеологии современного английского языка (3-е изд.) Dubna: Feniks. 1996
7. Nikitina, S. E. Frazeologizmy v sisteme stilisticheskikh sredstv. Москва: Nauka. 1988
8. Shmelyov, D. N. Stilisticheskaya grammatika russkogo yazyka. Москва: Nauka. 1977
9. Vinogradov, V. V. Russkiy yazyk: Grammatischeskoe uchenie o slove. Москва–Leningrad: AN SSSR. 1947
10. Козенко, М. Н. Коннотация как фактор экспрессивности фразеологических единиц. Вестник Московского университета. Серия 9: Филология, 6, 2004. 34–40.
11. Royzenzon, L.I. Русская фразеология: Учеб. Пособие. 1977
12. Royzenzon, L.I. М-во высш. и сред. спец. образования. Самарк. гос. ун-т им. А. Навои. — Самарканд : Самарк. ун-т. 1977. 119 с.



13. Yo'ldoshev, B. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2008
14. Yo'ldoshev, B. Ekspressivlik va baholash kategoriyasi. Toshkent: Fan. 2012
15. Yo'ldoshev, B. Frazeologik uslubiyat asoslari. O'quv qo'llanma. Samarqand. SamDU. 1998